

MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Karimov Abduraxmon Dilmurod o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

abdurahmon.karimov77@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15870735>

Annotatsiya. Maqolada moliyaviy natijalar auditining nazariy asoslari, amaliy ahamiyati va uni takomillashtirish zarurati chuqur tahlil etiladi. Moliyaviy natijalar – daromadlar, xarajatlar, foyda va zarar – korxonaning moliyaviy barqarorligi va investitsiyavni jozibadorligini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ushbu natijalarni haqqoniy va ishonchli tarzda aks ettirish esa auditorlik faoliyatining markaziy vazifasidir. Mavjud amaliyotda ba’zi korxonalar moliyaviy natijalarni manipulyatsiya qilish, daromadlarni oldindan tan olish yoki xarajatlarni yashirish orqali hisobotlarni sun’iy tarzda ijobjiy ko‘rsatishga harakat qilmoqda. Bunday holatlar auditorlar tomonidan aniqlanishi zarur bo‘lib, bu jarayon yuqori darajadagi professional yondashuv, texnik bilimlar va zamonaviy audit vositalarini talab etadi.

Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ilg‘or xalqaro tajriba asosida quyidagi takomillashtirish yo‘nalishlari taklif qilinadi: xalqaro audit standartlari (ISA) asosida metodikani chuqurlashtirish, CAATs (Computer Assisted Audit Techniques) va sun’iy intellekt vositalarini auditorlik faoliyatiga keng joriy qilish, shuningdek, moliyaviy natijalarni tahlil qilishda ichki audit va tashqi auditning samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish. Maqolada shuningdek, moliyaviy natijalarni hisobga olishda shaffoflik va aniqlikni ta’minlovchi avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy natijalar, auditorlik faoliyati, foyda va zarar, daromadlar, xarajatlar, xalqaro audit standartlari (ISA), CAATs, raqamli audit, sun’iy intellekt, moliyaviy hisobot, ichki nazorat, audit sifati, axborot tizimlari, shaffoflik, auditorlik metodikasi.

Abstract. The article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations, practical significance and need for improvement of the audit of financial results. Financial results - income, expenses, profit and loss - are important indicators that determine the financial stability and investment attractiveness of the enterprise. The true and reliable reflection of these results is the central task of auditing. In current practice, some enterprises are trying to artificially present their reports in a positive light by manipulating financial results, recognizing income in advance or hiding expenses. Such situations must be identified by auditors, and this process requires a high level of professional approach, technical knowledge and modern audit tools. The article proposes the following areas of improvement based on advanced international experience to eliminate these problems: deepening the methodology based on international auditing standards (ISA), widespread introduction of CAATs (Computer Assisted Audit Techniques) and artificial intelligence tools in auditing activities, as well as establishing effective cooperation between internal audit and external audit in analyzing financial results.

The article also highlights the importance of automated information systems that ensure transparency and accuracy in accounting for financial results.

Keywords: financial results, audit activities, profit and loss, income, expenses, international auditing standards (ISA), CAATs, digital audit, artificial intelligence, financial reporting, internal control, audit quality, information systems, transparency, audit methodology.

Kirish: Moliyaviy natijalar har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy faoliyatini baholashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Foyda yoki zarar ko‘rinishida ifodalanadigan bu natijalar korxonaning raqobatbardoshligi, investitsion jozibadorligi, moliyaviy barqarorligi va rivojlanish strategiyasini belgilab beradi. Shu bois, ushbu ko‘rsatkichlarning haqqoniyligi, aniqligi va shaffofligi iqtisodiy axborot foydalanuvchilari – investorlar, kreditorlar, soliq organlari, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim axborot manbaidir.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, axborot texnologiyalarining keng qo‘llanilishi va xalqaro audit standartlariga o‘tish jarayoni moliyaviy hisobotlarning shakllanishi va auditini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, daromadlar va xarajatlarning noto‘g‘ri e’tirof etilishi, foydaning manipulyatsiya qilinishi, soliqdan bo‘yin tov lash kabi muammolar moliyaviy natijalar auditini takomillashtirishni dolzarb masalaga aylantirgan.

Mazkur maqolada moliyaviy natijalarni shakllantirishdagi xatolarni aniqlash, audit metodikasini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribalardan foydalanish asosida moliyaviy natijalar auditining samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida moliyaviy natijalar auditining holati tahlil qilinib, uni yanada mukammallashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Moliyaviy natijalar auditini takomillashtirish masalasi O‘zbekiston olimlari tomonidan ham keng qamrovli o‘rganilmoqda. Jumladan, Abdullayeva N. (2023) o‘zining “Tijorat banklarida auditorlik tizimining raqamli transformatsiyasi” nomli tadqiqotida elektron audit tizimlarining, xususan CAATs va ERP platformalarining auditorlik samaradorligiga ta’sirini chuqur o‘rganadi. U foyda va xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlarni raqamli nazorat qilish orqali moliyaviy natjalarning haqqoniyligini oshirish zarurligini asoslaydi. Shunga yaqin yondashuvni Xusanov B. (2021) ham ilgari surgan bo‘lib, u auditorlik baholashda daromad va zarar elementlarining aniqligini ta’minalash uchun audit metodikasini optimallashtirishni taklif etadi.

Rossiyalik olimlar ham ushbu yo‘nalishda muhim ilmiy ishlarni amalga oshirgan.

Абрамов А.Б. (2020) moliyaviy natijalar auditini riskga assoslangan yondashuvlar orqali takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, zararlarni yashirish holatlarini aniqlashda auditorlar chuqur tahliliy metodlardan foydalanishlari lozimligini ko‘rsatadi. Bu fikrni Кузнецова Е.А. (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqot ham qo‘llab-quvvatlaydi. U foyda ko‘rsatkichlarini audit qilishda tahliliy audit baholovlaridan foydalanishni va bu orqali auditorlarning professional roli yanada kuchayishini asoslab beradi.

Yevropa olimlari ham moliyaviy natjalarni aniqlash va audit qilish sohasida ilg‘or texnologiyalarni joriy etishga alohida urg‘u bermoqda. Andersen T. (Germaniya, 2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Yevropa Ittifoqi korxonalarida foyda auditni bo‘yicha avtomatlashtirilgan vositalar, ayniqsa sun‘iy intellekt va katta ma’lumotlar (big data) asosidagi tahlillar auditorlik tekshiruvlarini optimallashtirishda muhim vosita sifatida baholangan. Shu bilan birga, Lopez M. (Ispaniya, 2018) auditorlarning huquqiy javobgarligiga e’tibor qaratadi hamda noto‘g‘ri foyda ko‘rsatkichlari taqdim etilishi holatlarida auditorning o‘rnini va mas’uliyatini chuqur tahlil qiladi.

Osiyo davlatlaridagi tajribalar ham ushbu sohani raqamlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Nakamura H. (Yaponiya, 2022) sun'iy intellekt vositalarining foyda va zarar tahlilidagi qo'llanilishi orqali auditorlik natijalarini yaxshilashni taklif qiladi. AI texnologiyalar auditorlik xatoliklarini kamaytirishda sezilarli rol o'ynaydi. Lee S. va Kim J. (Janubiy Koreya, 2020) blockchain texnologiyalarining auditga joriy etilishi orqali daromadlar va xarajatlar bo'yicha noto'g'ri axborotlarni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi. Ular moliyaviy natijalarni buzib ko'rsatish xavfini kamaytirish uchun avtomatik monitoring tizimlarini tatbiq etish zarurligini asoslab berishadi.

AQSh olimlarining yondashuvi esa metodik chuqurlik va zamonaviy standartlar asosida rivojlangan. Brown R. (2020) o'z asarida analitik audit usullaridan foydalangan holda foyda ko'rsatkichlarining real darajasini aniqlash yo'llarini ishlab chiqadi. Bu orqali audit sifatini oshirish va foydaning manipulyatsiya qilinishining oldini olish mumkinligi ko'rsatiladi. Shu bilan birga, Johnson L. (2023) murakkab tashkilotlarda daromadlarni tan olish bilan bog'liq muammolarni tahlil qiladi. U auditorlarning IFRS 15 standartidan foydalanish amaliyotini tahlil qilib, ushbu yondashuv orqali foyda shakllanishi ustidan ishonchli nazoratni yo'lga qo'yish mumkinligini asoslaydi.

Shuningdek, Osiyodagi yirik moliyaviy markazlardan biri bo'lgan Singapur olimi Tanaka Y. (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotda foyda tahlilining milliy xususiyatlari yoritilgan. U Osiyo mamlakatlarida foyda manipulyatsiyasi xavfini kamaytirish uchun maxsus audit yondashuvlarini ishlab chiqishni taklif qiladi. Ushbu tadqiqotlar orqali moliyaviy natijalar auditining nafaqat texnik, balki madaniy va institutsional jihatlariga ham e'tibor qaratilgan.

Tursunova G. (O'zbekiston, 2024) tomonidan o'r ganilgan xalqaro audit standartlari (ISA 540 va ISA 520) asosidagi milliy audit amaliyoti sharhi O'zbekistonda moliyaviy natijalar auditini takomillashtirishda xalqaro tajribaning muhimligini ko'rsatadi. Muallif milliy qonunchilik va xalqaro standartlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish zaruriyatini asoslab, foyda va zararlarni tahlil qilishda yagona metodologiyani ishlab chiqish tarafadori sifatida chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda dastlab moliyaviy natijalar auditining nazariy asoslarini aniqlash uchun taqqoslov (komparativ) tahlil usulidan foydalanildi. Xususan, xalqaro audit standartlari (ISA 500–540 seriyalari) va O'zbekiston amaliyotida mavjud bo'lgan audit me'yoriy hujjatlari o'rtasida taqqoslash olib borildi. Bu yondashuv orqali milliy va xalqaro tajribaning o'ziga xos jihatlari aniqlanib, moliyaviy natijalarning aniqligi va haqqoniyligini ta'minlashdagi metodik tafovutlar asoslandi.

Ikkinci bosqichda empirik tahlil asosida moliyaviy natijalarni audit qilishda mavjud muammolar va ularni aniqlash mexanizmlari o'r ganildi. Bu jarayonda 2020–2024-yillar oralig'ida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan 25 ta yirik korxona va tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari asosida auditorlik xulosalari tahlil qilindi. Daromad va xarajatlar tasnifi, foyda ko'rsatkichlarining shakllanishi va auditorlik tavsiyalarining sifati o'rtasidagi bog'liqlik statistik metodlar yordamida baholandi.

Uchinchi bosqichda esa analitik va tavsifyi (descriptive-analytical) metodlar asosida moliyaviy natijalar auditini takomillashtirish bo'yicha konseptual yondashuvlar ishlab chiqildi.

Jumladan, CAATs, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari va ichki audit tizimlari o'rtasidagi integratsiyani nazarda tutuvchi tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, xalqaro amaliyotdan moslashtirilgan ilg‘or tajribalarni milliy amaliyotga tatbiq qilish uchun normativ-tashkiliy takliflar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar. So‘ngi yillarda O‘zmilliybankning moliyaviy natijalariga auditorlik tekshiruvlari qanday ta’sir ko‘rsatganini aniqlash maqsadida, tijorat banki tomonidan taqdim etilgan hisobotlar va audit xulosalari batafsil o‘rganildi. Xususan, moliyaviy xatoliklar soni hamda sof foyda o‘zgarishlari tahlil qilindi. Quyidagi ikki jadval bu tendensiyalarni vizual tarzda taqdim etadi.

1-jadval

Auditorlik davomida aniqlangan moliyaviy xatoliklar soni

Yil	Aniqlangan xatoliklar (ta)	Daromadlar bo‘yicha xatoliklar	Xarajatlar bo‘yicha xatoliklar	Foyda noto‘g‘ri aks ettirilgan holatlar
2020	58	24	19	15
2021	52	21	17	14
2022	45	18	15	12
2023	38	15	13	10
2024	30	12	10	8

Manba: [https://nbu.uz/platformasidagi hisobot ma'lumotlariga asoslangan holda tuzilgan](https://nbu.uz/platformasidagi_hisobot_ma'lumotlariga_asoslangan_holda_tuzilgan).

2020–2024-yillar davomida O‘zmilliybankda o‘tkazilgan auditorlik tekshiruvlari natijalari moliyaviy hisobotlarda aniqlangan xatoliklar sonining bosqichma-bosqich kamayib borayotganini ko‘rsatadi. 2020-yilda jami 58 ta xatolik aniqlangan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 30 tagacha kamaygan. Bu tendensiya bankning moliyaviy boshqaruv tizimida ichki nazorat va audit mexanizmlari takomillashib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, so‘nggi ikki yilda xatoliklar sonining keskin qisqargani raqamli audit vositalari (CAATs, AI) va xalqaro standartlar asosidagi yondashuvlarning amalda qo‘llanila boshlaganini anglatadi.

Jadvaldagagi ustunlar kesimida xatoliklar turlari bo‘yicha tahlil qilinsa, daromadlar bo‘yicha xatoliklar soni 2020-yildagi 24 tadan 2024-yilda 12 tagacha kamaygan. Bu holat bank tomonidan daromadlarni tan olishda aniqroq va ehtiyyotkorroq yondashuv qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yangi hisob siyosati va IFRS 15 talablariga moslashish jarayoni bu borada sezilarli natijalar bergen.

Xarajatlar bo‘yicha aniqlangan xatoliklar ham 2020-yildagi 19 tadan 2024-yilda 10 tagacha tushgan. Xarajatlarni noto‘g‘ri klassifikatsiyalash, kechiktirib e’tirof etish va muomaladan yashirish holatlari auditorlar tomonidan kamaytirilib borilgan. Bu natijalar auditning profilaktik, ya’ni oldini oluvchi vazifasini muvaffaqiyatli bajarayotganini ko‘rsatadi.

Foydaning noto‘g‘ri aks ettirilgan holatlari 2020-yildagi 15 tadan 2024-yilda 8 taga tushgani esa auditorlik faoliyatining moliyaviy natijalarni aniqlashdagi rolini ochiq ifodalaydi.

Foydaning manipulyatsiyasi korxonaning investitsiyaviy jozibadorligiga, soliq majburiyatlariga va moliyaviy strategiyalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Audit ushbu xavflarni aniqlab, moliyaviy hisobotlarni real holatga moslashtirishga xizmat qilgan.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, O‘zmilliybankda moliyaviy nazorat vositalari bosqichma-bosqich mukammallashmoqda.

Xatoliklarning kamayishi – bu faqat auditorlar faoliyatining emas, balki bank tomonidan hisob va hisobot tizimlariga bo‘lgan yondashuvda sifat jihatidan yuksalish bo‘layotganini bildiradi. Bu esa nafaqat auditorlik jarayonining sifati, balki butun moliyaviy boshqaruv madaniyatining rivojlanayotganidan darak beradi.

2-jadval

Sof foyda: auditdan oldingi va keyingi qiymatlar (mlrd so‘m)

Yil	Auditdan oldingi foyda	Auditdan keyingi foyda
2020	905.4	880.2
2021	983.3	960.5
2022	1 050.7	1 030.1
2023	1 120.2	1 105.0
2024	1 200.5	1 187.8

<https://nbu.uz platformasidagi hisobot ma'lumotlariga asoslangan holda tuzilgan>.

O‘zmilliybank AJ misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020–2024-yillar davomida auditorlik faoliyatining samaradorligi sezilarli darajada oshgan. Bu, avvalo, aniqlangan moliyaviy xatoliklar sonidagi pasayishda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Agar 2020-yilda auditorlar tomonidan 58 ta xatolik aniqlangan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich atigi 30 taga tushgan. Bunday ijobiy tendensiya, asosan, ilg‘or auditorlik texnologiyalari – xususan, riskga asoslangan audit metodologiyasi, CAATs (kompyuterlashtirilgan audit vositalari) va sun’iy intellektga asoslangan avtomatik tahlil vositalarining joriy etilishi evaziga yuzaga kelgan.

Bu esa auditning faqat hujjatlarni tekshirish emas, balki analitik tahlil, xatoliklarni real vaqt rejimida aniqlash va samarali qarorlar chiqarishga qaratilgan strategik vositaga aylanganini anglatadi.

Sof foyda ko‘rsatkichlarining audit natijalaridan so‘ng tuzatilishi, audit jarayonining moliyaviy hisobotlar sifati va haqqoniyligiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi.

Jumladan, 2022–2024-yillar davomida O‘zmilliybank hisobotlarida ko‘rsatilgan sof foyda miqdori auditorlar tomonidan tahlil qilinib, o‘rtacha 20–25 milliard so‘m miqdorida qayta hisoblangan. Bu esa daromadlarni ortiqcha ko‘rsatish yoki ayrim xarajatlarni hisobotdan yashirish kabi manipulyatsiyalarni oldini olishda auditorlik faoliyatining hal qiluvchi rol o‘ynayotganini anglatadi. Auditorlar daromadlar va xarajatlarni tan olishdagi xalqaro standartlarga (xususan IFRS 15) moslikni chuqur tahlil qilib, foyda shakllanishidagi muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlab bergen.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, audit jarayonining samaradorligi nafaqat hisobot tuzatmalarida, balki moliyaviy shaffoflik va ichki nazorat tizimlarining takomillashishida ham namoyon bo‘lmoqda. Auditorlar tomonidan aniqlangan xatoliklar tahlili asosida O‘zmilliybank o‘zining ichki audit mexanizmlarini mustahkamlashga kirishgan. Bu esa tashqi va ichki audit o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuvi, nazorat funktsiyalarining uyg‘unligi va bank tizimidagi ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, yuqori darajadagi audit aniqligi investorlar, regulatorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun O‘zmilliybank hisobotlarining ishonchlilagini oshirmoqda. Ushbu natijalarga asoslanib, ilmiy-amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Birinchidan, bank faoliyatida raqamli audit platformalari va sun’iy intellekt vositalarini keng joriy etish lozim. Bu texnologiyalar yordamida nafaqat mavjud xatoliklarni aniqlash, balki

real vaqt rejimida monitoring yuritish, xatarlarni prognoz qilish va avtomatlashirilgan audit algoritmlarini ishlab chiqish mumkin. Ikkinchidan, riskga asoslangan audit metodologiyasini yanada chuqurlashtirish, ya'ni faoliyat yo'nalishlari, filiallar va mahsulotlar kesimida tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan jarayonlarga ustuvor e'tibor qaratish zarur. Uchinchidan, auditorlar malakasini oshirish va ularni xalqaro standartlar – xususan, ISA 500–540 doirasidagi mezonlar asosida tayyorlash bo'yicha tizimli treninglar tashkil etish zarur. Bu yondashuvlar audit sifati va auditga nisbatan ishonchni yanada oshirish imkonini beradi.

Muhokama: Tahlil qilingan 2020–2024-yillar davomida O'zmilliyybank AJ tomonidan taqdim etilgan sof foyda ko'rsatkichlari auditorlik tekshiruvlari natijasida har yili qayta ko'rib chiqilgan. Jadvaldan ko'rinish turibdiki, har bir yilda auditdan oldingi va keyingi foyda o'rtasida sezilarli farq mavjud. Bu farqlar bank tomonidan dastlabki hisob-kitoblarda ayrim daromadlar va xarajatlar noto'g'ri yoki yetarli aniqlikda e'tirof etilmaganidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2020–2021-yillarda ushbu tafovutlar 20 milliard so'mdan yuqori bo'lgan.

Mazkur farqlar tahlil qilinadigan bo'lsa, 2020-yilda auditdan keyin foyda 25,2 milliard so'mga (-2.78 %) kamaygan. Bu holat moliyaviy natijalarning manipulyatsiyalangan bo'lishi, ya'ni bankning iqtisodiy holatini ijobjiy ko'rsatishga bo'lgan ehtimoliy urinishlarini ko'rsatadi.

Biroq, yillar o'tishi bilan bu tafovut kamayib borgan va 2024-yilda atigi 12,7 milliard so'mni tashkil etgan. Bu esa, o'z navbatida, auditorlik nazorati kuchaygani, bank ichki nazorat tizimlarining yaxshilanganini hamda moliyaviy hisobotlarning sifati oshganini bildiradi.

Muhokama davomida alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlardan biri – audit tomonidan aniqlangan farqlar bank imijiga va investorlar ishonchiga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasıdir. Har yili foydaning pasaytirilishi qisqa muddatda salbiy ta'sir qilsa-da, uzoq muddatda bu holat bank faoliyatining shaffofligini oshiradi. Ayniqsa, xalqaro investorlar uchun auditdan o'tgan va tuzatilgan moliyaviy hisobotlar ishonchli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu esa O'zmilliyybankning xalqaro kredit reytinglariga, moliyaviy barqarorligiga va investitsiya jalb qilish imkoniyatlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, audit jarayonida foyda ko'rsatkichlarining aniq baholanishi korxona ichida ham muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishga zamin yaratadi. Hisobotdagи aniqlik bank rahbariyatiga xarajatlar siyosatini qayta ko'rib chiqish, daromad manbalarini diversifikatsiyalash va risklarni boshqarish strategiyalarini optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat auditning nazorat vazifasini, balki strategik ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy natijalar auditining takomillashtirilishi korxonalar, xususan tijorat banklari uchun strategik ahamiyatga ega.

O'zmilliyybank AJ misolida 2020–2024-yillarda auditorlik tekshiruvlari natijasida aniqlangan xatoliklar sonining sezilarli darajada kamaygani, sof foyda ko'rsatkichlarining auditdan so'ng yangilanishi va moliyaviy shaffoflikning oshgani ushbu yo'nalishdagi islohotlarning ijobjiy samarasini yaqqol namoyon qilmoqda. Daromad va xarajatlar bo'yicha xatoliklarning bosqichma-bosqich kamayib borayotgani, foydaning manipulyatsiya qilinish hollari ustidan samarali nazorat o'rnatilayotgani bank auditining raqamli vositalar va xalqaro standartlarga asoslangan holda faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, CAATs, sun'iy intellekt va riskga asoslangan audit metodlarining joriy etilishi moliyaviy natijalarni aniqlashda inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu asosda, moliyaviy natijalar auditini yanada takomillashtirish uchun quyidagi xulosalarga kelindi:

- audit jarayonida zamonaviy texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va analitik vositalardan keng foydalanish zarur;
- foyda va zarar ko‘rsatkichlarini aniqlashda xalqaro audit standartlariga (ISA 500–540) to‘liq moslashish kerak;
- ichki audit tizimlari tashqi audit bilan integratsiyalashgan holda ishlashi audit samaradorligini oshiradi;
- auditorlar malakasini oshirish va ularni xalqaro amaliyotga tayyorlash dolzARB masala bo‘lib qolmoqda.

Yuqoridagi xulosalar asosida moliyaviy natijalar auditining shaffoflik, ishonchlilik va tizimli nazorat tamoyillariga asoslangan holda rivojlantirilishi nafaqat O‘zmilliyybank faoliyati, balki mamlakatda korporativ boshqaruv madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva N. (2023). Tijorat banklarida auditorlik tizimining raqamli transformatsiyasi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Xusanov B. (2021). Moliyaviy hisobotlarni auditorlik baholashning amaliy jihatlari. Toshkent: “Ilm Ziyo”.
3. Tursunova G. (2024). O‘zbekistonda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida audit qilish muammolari. “Moliyaviy tahlil” jurnali, №2(47), 66–72.
4. Абрамов А.В. (2020). Аудит финансовых результатов: риски, методы и практика. Москва: Финансы и статистика.
5. Кузнецова Е.А. (2019). Совершенствование методики анализа прибыли в аудите. Вестник СПбГУ, №4, 103–109.
6. Andersen, T. (2021). Audit Innovation and Financial Results Verification in the EU. Berlin: Springer Verlag.
7. Lopez, M. (2018). Financial Statement Manipulation and Auditor Responsibility. European Accounting Review, 27(2), 145–167.
8. Nakamura, H. (2022). AI-based Analytics in Financial Performance Auditing. Tokyo: Journal of Asian Business and Finance, 14(1), 54–69.
9. Lee, S. & Kim, J. (2020). Digital Transformation in Audit Practices: A Case Study from South Korea. Asian Journal of Accounting Research, 5(3), 212–225.
10. Brown, R. (2020). Modern Audit Techniques for Financial Results. New York: Wiley & Sons.
11. Johnson, L. (2023). Auditing Revenue Recognition in Complex Organizations. Journal of Accounting and Economics, 66(4), 300–317.
12. Tanaka, Y. (2019). Audit Approaches to Corporate Profit Analysis in Asia. Singapore: Asian Institute of Finance Publications.
13. <https://nbu.uz>